

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi SSV huzuridagi uzluksiz kasbiy ta'lim muassasalararo muvofiqlashtiruvchi Kengashda ko'rib chiqilgan va 2024 yil 06 iyuldagi №1-sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan

Amal qilish muddati 2026 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
Kafedra / bo'lim	Patologik anatomiya va sud tibbiyoti
O'quv dastur nomi	« Sud tibbiy travmatologiya »
O'qish turi	Mavzuiy malaka oshirish
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Q.A.Maxsumxonov, K.A.Akbergenova.
Siklning umumiy soati	144 kredit
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar	



T.f.d, dotsent Q.A.Maxsumxonov



T.f.n, dotsent K.A.Akbergenova

Maqsad

Sud-tibbiy ekspertlarda tan jarohatlari va zaharlanishlar bilan bog'liq holatlarda murda va tirik shaxslar sud-tibbiy ekspertiza va tekshiruvlarini o'tkazish ko'nikmalarini mustahkamlash, qo'shimcha sud-tibbiy, klinik, laborator, instrumental tekshiruvlarni o'tkazish va olingan natijalarni baholash, tan jarohatlarining og'irlik darajasini aniqlovchi mezonlardan foydalanish tartibi bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini chuqurlashtirish va yangilash.

Siklga taklif qilingan mutaxasisslar - kontingent	Davlat sud-tibbiy ekspertiza muassasalari sud-tibbiy ekspertlari uchun mo'ljallangan.
Sikl vazifalari	Tan jarohatlari va zaharlanishlar bilan bog'liq holatlarda amaldagi sud-tibbiy ekspertizalar va tekshiruvlarni o'tkazish qoidalarini, standartlari, amallarni bajarish yo'riqnomalari bilan tanishtirish, ular asosida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish; tan jarohatlarini tavsifi, tasnifi, ularni qayd etish algoritmini o'rgatish; tan jarohatlarining yetkazishi mexanizmi, muddati, hayotiyligini aniqlash tartibini tushuntirish; tan jarohatlari bilan bog'li o'lim holatlarini KXT – 10 ga mos ravishda tashxislashga o'rgatish; tan jarohatlari bilan bog'liq holatlarda o'tkaziladigan qo'shimcha laborator va instrumental tekshiruv natijalarini to'g'ri baxolashga o'rgatish; tan jarohatlari bilan bog'liq holatlarda sud-tibbiy ambulatoriyada tirik shaxslar sud-tibbiy ekspertizasi va tekshiruvlari, sud-tibbiy guvohlantiruv amaliyotini o'tkazish tartibi va xususiyatlarini o'rgatish; tan jarohatining og'irlik darajasini aniqlash mezonlaridan foydalanishni o'rgatish; tibbiy xodimlarining xayotiy va ilmiy tassavvurini shakllantirishda milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni insonparvarlik moxiyatini ko'rsatish asosida, tibbiyot xodimlarining ongiga singdirish.
Sikl tarkibi	1. Modul. Sud-tibbiy travmatologiya (umumiy masalalar) 2. Modul. Mexanik jarohatlarning sud-tibbiy ekspertizasi. 3. Modul. Fizik omillar ta'sirida yetkazilgan jarohatlarning xususiyatlari.

O‘qish bazalari (asosiy)	Qo‘shimcha bazalar (tasdiqlangan shartnoma asosida):
1. Respublika sud- tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi	2.Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Toshkent viloyati filiali



Asbob/uskunalar

